

INTERAKTIV USULLAR – O‘QUVCHILAR QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH OMILI

Yuldasheva Yulduz Ro‘zimboy qizi

Toshkent Shahar Bektemir tumani 293-maktabning Fizika va astronomiya fani o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7556336>

Annotatsiya. Hozirgi kunda zamonaviy maktabning asosiy vazifalardan biri o‘quvchilarni tarbiyalash hamda jamiyatda o‘z o‘rnini topishga ko‘maklashish va unga yetarli darajada foyda beradigan bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy talablaridan biri har bir dars jarayonida turli mazmunli, dars mohiyatini ochib beruvchi o‘quvchilarni zerikarli tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantira oladigan o‘yinlardan foydalanib ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini, fanlarga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishdan iborat. Quyida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining konstruktiv qobiliyatlarini shakllantiruvchi o‘yin shakllar bilan ishlash usuli jarayoni bilan tanishingiz mumkun.

Kalit so‘zlar: zamonaviy maktab, o‘quvchi, o‘yin, dars, boshlang‘ich sinf.

ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ - ФАКТОР РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ

Аннотация. На сегодняшний день одной из основных задач современной школы является воспитание учащихся, помощь им в поиске своего места в обществе и вооружение их знаниями, которые принесут им достаточную пользу. Одним из основных требований современных педагогических технологий является формирование у них способности самостоятельного мышления и интереса к науке с помощью игр, способных превратить учащихся из скучных слушателей в активных участников. Ниже вы можете ознакомиться с процессом работы с игровыми формами, формирующими конструктивные способности учащихся начальной школы.

Ключевые слова: современная школа, ученик, игра, урок, начальный класс.

INTERACTIVE METHODS - A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' ABILITIES

Abstract. Today, one of the main tasks of the modern school is to educate students, help them find their place in society and equip them with knowledge that will bring them sufficient benefit. One of the main requirements of modern pedagogical technologies is the formation of their ability to think independently and interest in science with the help of games that can turn students from boring listeners into active participants. Below you can get acquainted with the process of working with game forms that form the constructive abilities of elementary school students.

Keywords: modern school, student, game, lesson, elementary class.

Mamlakatimizda fan texnika jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu bir tamondan fan texnikaning yangi soha bilimlarining taraqqiy etishi tufayli uning differentsiyallashuvini ta‘minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tamondan fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Bunday sharoitda yuqori malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan talablar ortib borib barkamol avlodni asirlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadryatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini pedagogika va psixologiya

metodlarini mukammal egallagan kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasini puxta o'zlashtirgan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Hozirgi kunda zamonaviy maktabning asosiy vazifalardan biri o'quvchilarni tarbiyalash hamda jamiyatda o'z o'rnini topishga ko'maklashish va unga yetarli darajada foyda beradigan bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. Bu muommoni hal etishning muhim yo'nalishlardan biri o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini oshirish ularda bilim olishga qiziqish mustaqillik va ijodkorlikni rivojlantirishdan iboratdir.

O'quvchilarning har tamonlama yetuk inson bo'lib yetishishida biz pedagoglarning o'rni beqiyos. Bugungi kun o'qituvchisi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan, ta'bir joiz bo'lsa har bir dars uchun o'zi ham kichik kashfiyotlar yaratishi kerak. Chunki zamon ilgari borayotgan bir paytda bugungi davr bolasini 45 daqiqalik dars mobaynida diqqatini faollashtirib bilim berish – murakkab jarayondir. Shuning uchun bolalarga turli ko'rgazmalar va o'yinlar orqali ta'lim berish ularning nutqi rivojlanishiga, fikr doirasi kengayishiga imkon beradi. Eng asosiysi darsda samaradorlikka erishiladi. Mavzuni idrok etish osonlashadi va hech kim zerikmaydi. Fikrlay olish bolalar o'yinlarida ham, o'qishda, mehnatda ham rivojlanadi. Fikr inson oldida eng oddiy bo'lsada biror muammo yoki vazifa turgandagina paydo bo'ladi. Bunda ko'p narsa insonning aql zakovatiga intellektual qobiliyatiga ham bog'liq.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy talablaridan biri har bir dars jarayonida turli mazmunli, dars mohiyatini ochib beruvchi o'quvchilarni zerikarli tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantira oladigan o'yinlardan foydalanib ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini, fanlarga bo'lgan qiziqishini shakllantirishdan iborat.

Quyida boshlang'ich sinf o'quvchilarining konstruktiv qobiliyatlarini shakllantiruvchi o'yin shakllar bilan ishlash usuli jarayoni bilan tanishingiz mumkin. Masalan, archa yasash bo'yicha bu usuldan dars mavzusiga qarab turli o'yinlardan foydalanish mumkin. Bunda har bir geometrik shakllarning orqa tarafiga kichik cho'ntaklar qilinib unga matematika darsi bo'lsa darslikdagi o'tishi lozim bo'lgan misollar yozib qo'yiladi. Ona-tili darsda esa o'tilayotgan mavzu bo'yicha "Alifbo nima?", O'nli harflar nechta? Harf nima? Kabi savollar joylashtiriladi.

"Insert" strategiyasi metodi

Insert- O'quv jarayonida o'quvchilarning olgan bilimlarini mustaqil tahlil qilish va anglash imkoniyatini beradigan vositadir.

Maqsad: o'quvchilarni matnni oxirigacha o'qib mazmunini anglab, qayta hikoya qilishga o'rgatish. Vazifasi: faol bo'lmagan o'quvchilarni doskaga qatnashishlarini ta'minlash hamda qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish. O'quvchi matnni "ISERT" strategiyasi metodidan o'rganilganda quyidagi jadvaldan "OLTIN KUZ" mavzusida foydalanish mumkin.

“V”	“+”	“-”	“?”
Bilganlarimni tasdiqlaydi	yangi axborot	Bilganlarimga zid keladi	Meni o'ylantirib qo'ydi
“Oltin kuz” deb atalishini bilaman. Chunki kuz faslida tabiat oltin tusga kiradi.	Tuyoqli jonivorlar haqida ma'limotga ega bo'ldim.	Ko'k qarg'alar ham issiq o'lkalarga uchib ketar ekan.	Tuyoqli jonivorlarga nimalar kiradi?

O'qish darsida esa topishmoqlarni yozib qo'yish foydali masalan:

1. Tog'orada shishadi
Tandirda u pishadi.
2. O'zi yo'q tishi ko'p.
3. O'tda yonmaydi suvda cho'kmaydi.
4. Katta varrak dumi taroq
Akasining ismi quroq.

Ushbu shakllar o'quvchilarga tarqatiladi. O'quvchilar to'g'ri javob bersa, shakllar magnit doskasiga yopishtirilib yig'iladi. Agar tarqatilgan shakllarning biron-tasiga to'g'ri javob berilmagan bo'lsa, o'sha shakl yana archa yasashni yakuniga yetkaza olmagan uchun ham yana kelgusida darsga albatta tayyorlanib keladi. O'z o'zidan darsga tayyorlashga rag'bat uyg'onadi.

Shakllar o'rtasidagi topshiriqni masalan "Birni kessang , o'nni ek" kabi maqollarni o'quvchilar davom ettiradilar. Shakllarni magnit doskasiga joylashtirib to'g'ri to'rtburchak hosil qilib u nechta uchburchakdan iborat ekani tushuntiriladi. Doira shaklini hosil qilish ham mumkin. Bunday metodlar sinfdagi eng qoloq o'quvchini ham darsga qiziqтира oladi. Chunki topshiriqlarni xat'o bajargani yasalishi kerak bo'lgan shaklga bo'shliq hosil bo'lishi mumkinligini o'quvchi anglaydi. Natijada kelgusi darsga tayyorlanib kelishga rag'bat uyg'onadi.

Aqiziqarli tashkil etish o'quvchidan katta mahurat ziyraklik , yuksak did, ijobiy faoliyat, tinimsiz mehnat talab qiladi. Ya'ni o'qituvchi o'yinlar va ko'rgazmalarga suyanib ish ko'rsa , o'quvchilarda darsga qiziqish uyg'onadi, o'zlashtirish oson bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida harflarning joylashish tartibini, harflardan so'zlar hosil qilishni o'rganishda " Oy va yulduzlar" o'yinidan foydalanish mumkin.

"Mevalar" trenajori o'yini

O'quvchilarga olmalar ortida misollar berkitilgan. Misollarni yechsangiz olmalarni tipratikon terib bolalarga olib boradi topshirig'i beriladi.



" Oy va yulduzlar" o'yini

Alifbodagi harflar joylashgan raqamlardan foydalanib oy harflar yordamida so'zlar hosil qiling

Masalan: 2- ... oy , alifbosida 2 soni ostida "B" harfi joylashgan javob BOY

Alifbodagi harflar joylashgan tartib raqamidan , osh so'zi yordamida so'zlar hosil qiling

Javob: 2-"B" + 3-"D" + osh

12-"M" +osh 27"SH" + osh

19-"T"+osh 27 "SH" + osh

Yangi pedagogik texnologiya dars o'tish shakllari va usullarini o'zgartirib ularni hilma hil qiladi, o'quvchini o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. Taraqqiyotning zamonaviy darajasiga mos kelishga intilayotgan jamiyatga esa, avvalam bor , olgan bilimlarni mustaqil fikrlaydigan shaxslar kerak.

REFERENCES

1. J.G'.Yo'ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. T- O'qituvchi, 2004.
2. R.J.Ishmuhamedov Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. T- 2006.
3. Utemov V.V., Zinovkina M.M., Gorev P.M. Ijodkorlik pedagogikasi: ilmiy ijodkorlikning amaliy kursi: darslik. - 2013. - 212 p.
4. Саврасова, А.И. Оценка образовательных результатов в условиях модернизации образования. : учеб.-метод. пособие / Федер. агентство по образованию, Мурман. гос. пед. ун-т ; А. И. Саврасова. - Мурманск: МГПУ, 2008. - 168 с.
5. З. Зачесова, Е. В. Традиционные и инновационные принципы оценивания достижений учащихся. / Е.В. Зачесова, // Школьные технологии. - 2007. - № 2.
6. Курносков, В. М. Оценка как фактор повышения внутренней мотивации обучения. / В.М. Курносков // Физика в школе. - 2008. - № 6.